



BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA DIQQATNING RIVOJLANISHI

Raximova Feruza Najmiddinovna.

Qo'qon Davlat universiteti o'qituvchisi

Yuldasheva Maloxat Erkinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog'cha yoshdagi ya'ni 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarda diqqatning paydo bo'lishi va uning rivojlanishi haqidagi shaxsiy va mashhur olimlarning fikrlari yoritiladi. Avvalo diqqatning o'zi nima va bizning hayotimizda qay darajada uning o'rni muhimligi to'g'risida fikr yurutamiz.

Tayanch so'zlar: maktabgacha yoshidagi, bog'cha yoshidagi, e'tibor, konsentratsiya, ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat, ong.

Diqqat- bu inson o'z e'tiborini biror bir narsaga uzoq vaqt davomida qaratishi, diqqatning inson faoliyatida o'rni juda katta bo'lib u biz qilayotgan ishing samaradorligiga va uning natijasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu degani biz qanchalik qilayotgan ishimizga diqqat-e'tiborimizni qaratsak uning samaradorligi shunchalik oshaveradi. Diqqat ikkiga bo'linadi: ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat. N.F.Dobrinin diqqatni kishi psixik faoliyatini biror bir obyektga yo'naltirish va to'plash bilan boshqa obyektlardan chalg'ishi orqali tushuntiradi. Agar yo'nalish va to'planish ixtiyorsiz bo'lsa ixtiyorsiz diqqat vujudga keladi. Agar ong qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lsa, u holda ixtiyoriy diqqat namoyon bo'ladi. Bular qatorida N.F.Dobrinin diqqatning uchta turini ajratadi. Uning fikricha, diqqatning uchinchi turi "ixtiyoriydan keyingi diqqat" deb ataladi. Bu ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan bo'lib, irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Bular to'g'risida N.F.Dobrinin shunday deydi. "Ixtiyoriy diqqatda qiziqishga intilishga o'rin bor, lekin bu qiziqish faoliyatning natijasiga qiziqishdir. Faoliyatning o'zi esa qiziqarsizdir. Kishi psixik faoliyatining ajoyib xususiyati shundan iboratki, natijaga qiziqish jarayonga qiziqishga aylanadi. Bu ixtiyoriy diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanganda bo'ladi". Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning bu turi hali rivojlanmagan bo'ladi. Bolalar ongida diqqatning rivojlanishi muhim hodisalardan biri bo'lib unga ota onalar bog'cha yoshidan boshlab e'tibor bersa, har xil o'yinlar bilan uni yanada rivojlanishiga yordam bersa bala kelajakda bir narsaga o'z diqqatini qaratayotganda osonlik bilan boshqa narsalarga chalg'ib ketmaydi. Yuqorida aytib o'tilgandek diqqat ikkiga bo'linadi; ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Bolalarda ixtiyoriy diqqatga nisbatan ixtiyorsiz diqqat yuqoriroq boladi. Ularning bir narsaga diqqatini qaratishini ko'proq o'yin o'ynayotgan

mahalda ko'rishimiz mumkin ya'ni ular diqqat-e'tiborlari qay darajada ekanini ularning o'yin o'ynash davrida qancha muddatgacha shu o'yinning o'zigagina e'tibor berishidan bilishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni korsatadiki kichik maktabgacha yoshdagi (3-4 yosh) bola bir narsaga etiborini 25-30 daqiqa davomida qarata oladi ya'ni o'yni misol qilib olsak u o'yin qanchalik qiziq bo'lmasin 30 daqiqadan so'ng bola zerikishni boshlaydi va bu o'yin unga qiziq emas bo'lib ko'rinadi so'ngra u boshqa yangi o'yinni o'ynashni boshlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarda diqqat ancha rivojlangan bo'ladi va ular o'z e'tiborlarini 1-1,5 soat davomida bir narsaga qaratda oladi. Bu degani ular o'z tengqurlari bilan bir o'yinni 1 soatgacha o'ynay oladi va agar siz biror narsa o'rgatmoqchi bo'lsansiz ular ma'lum bir vaqt davomida siz o'rgatmoqchi bo'lgan narsaga qarata oladi va shu narsani o'rganadi ya'ni bog'chadan yod olish uchun sher berilsa siz u bola bilan kun davomida bir soat vaqt ajratsangiz va shug'ullansangiz u ossonlik bilan sherni yod oladi Diqqatning psixologik tahlilini K.D.Ushinskiy tarbiya muammosi bilan bog'lab, diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish yoki idrok qilish ya'ni yangi biror narsani o'rganish paytida asosiy ishdan tashqaradagilarga chalg'imaslik tushuniladi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning diqqatini to'g'ri yo'nalishda ko'rish va ularning diqqatini o'zlari boshqarishga o'rgatishdan iboratdir. Bolalar o'z xohishi bilan bir narsani o'rganishi va o'sha narsaga diqqatini qaratishiga yordam berishadi. Agar bola bir narsaga ixtiyoriy ravishda o'z diqqatini qaratsa shu narsani esda saqlab qolishi yaxshiroq bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda e'tiborining quyidagi xususiyatlari mavjud: 0. Qisqa konsentrsiya, qisqa vaqt ichida sezilarli tebranishlarga moyilligi, bolalar bir necha marotaba faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishadi, rejalarini bir necha bor o'zgartiradilar. 1. Tashqi ta'sirlarga rioya qilish, hatto ozgina begona narsa ham bolaning e'tiborini faoliyatdan chalg'itadi. 2. Mashg'ulot turiga qarab, 4 yoshli bolalar qiziq ertakni diqqat bilan tinglashlari yoki 20 daqiqa yoki undan ko'proq vaqt davomida mufilm tomosha qilishlari mumkin, ammo ular mashg'ulot boshlangandan 5 daqiqa o'tgach, qiziq bo'lmagan mashg'ulotlardan chalg'ib ketishadi. 3. Ixtiyoriy ruhiy tartibga solish bo'lmagan taqdirda o'z xohishiga ko'ra bir obyektidan ikkinchisiga o'tish imkoniyati yo'qligi. 4. Bolaning yoshiga qarab, bolalar qanchalik kichik bo'lsa, ular kattalarning so'zlariga shunchalik kam e'tibor berishlari mumkin, chunki ularning e'tiborini yorqin, jozibali narsalar ko'proq jalb qiladi(so'zlar faqat ularga hamroh bo'ladi) o'rta va kattaroq maktabgacha yoshdagi kattalar so'zlari bola uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'lib, u o'zini o'zi faol ravishda ularga e'tiborini qaratadi. 5. Diqqatning zaif taqsimlanishi (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq faoliyat turlarini bajara olmaslik), kichik hajm(qisqa vaqt ichida ko'plab obyektlarni o'z ichiga olmaslik). Birinchi xususiyati qisqa konsentratsiya bo'lib u bolaning bir ish bajarish vaqtida ixtiyorsiz boshqa narsaga chalg'ib ketishi tushuniladi. Uning o'z rejalarini bir necha marotaba o'zgartirishi, ya'ni 4 yoshli bolaga katta bo'lganingda kim bo'lishni istaysan degan savolni bersangiz u o'z qiziqishidan kelib chiqib bir kasbni aytadi lekin bir necha oy yoki bir yildan so'ng, o'sha bolaga xuddi shu savolni yana qayta bersangiz u umuman boshqa kasbni aytadi. Bunga oddiy misol qilib o'zimizni keltirsak bo'ladi chunki biz ham xuddi shunday qilganmiz. Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinfdagi bolalarda bu holat juda ko'p uchraydi. Ya'ni ular bu yoshda ularni qaysi soha qiziqтира

“Kelajakda manashu soha egasi bo’laman.” deyishadi va boshqa qiziqarliroq sohaga duch kelishsa fikrlari o’zgarib bu sohani egallash haqida o’ylay boshlashadi. Ushbu holatlar diqqatning qisqa konsentratsiyasiga misol bo’la oladi. Diqqatning bo’linishidagi eng katta omillardan biri tashqi ta’sirdir. Biz yaxshi bilamiz bu yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriyga nisbatan faolroq bo’ladi, shuning uchun har qanday tashqi omil uning diqqatini osonlikcha bo’lishi mumkin. Masalan bog’cha yoshidagi bolaga biror ertakni o’qib bersangiz u boshida qiziqib tinglaydi lekin uning qulog’iga qandaydir ovoz eshinishi yoki ko’ziga biror o’yinchoq yoki e’tiborni tortadigan narsaning ko’rinishi bilan uning diqqati buziladi va bola ertak qolib hayoli boshqa narsalarga chalg’ib ketadi yoki shunchaki turib o’sha narsaning oldiga ketib qoladi. Siz o’qib berayotgan ertagingiz qanchalik qiziq bo’lmasin oddiy tashqi omil uning diqqatini tortib olishi mumkin. Bog’cha yoshidagi bolalarga biror ertak o’qib yoki multik qo’yib berishda iloji boricha eng qiziqarlisini tanlash kerak hattoki biror narsani o’rgatmoqchi bo’lsangiz ham uni iloji qiziqarli yo’lni tanlash kerak. Chunki tepada atyib o’tkanimizdek bu yoshdagi bolalarning diqqati juda oson buziladi, agarb biz topgan mashg’ulotlar qiziqarli bo’lmasa ular bu mashg’ulot bilan shug’ullanishni hohlashmaydi. Masalan bog’chada bolalarga biror narsani o’rgatmoqchi bo’lishsa, o’qituvchilar shu mavzuga oid har xil qo’shiqlar yoki raqslar topiladi va shular bilan tushuntiriladi. Agar bog’cha yoshidagi bolalarga (ya’ni 3-6 yoshli) biror mavzuni shunchaki og’izda yoki qoidalar bilan tushuntirilsa bu bolalarga zerikarli tuyuladi va ular bu narsani o’rganishni hohlashmaydi. Lekin huddi shu narsani har xil qo’shiq yoki she’rlar bilan o’rgatishsa bolalarda qiziqish paydo boladi va hech bo’lmasa shu mavzu haqida biroz bo’lsa ham tushunchaga ega bo’lishadi. Agar bolada bir narsa qilishga xohish bo’lmasa har qancha majburlansa ham u ishni qilmaydi, qilgan taqdirida ham norozilik bilan qiladi. O’qish va o’rganishda ham xuddi shunday agar u xohlamasa umg qancha o’rgatganingiz bilan esida qolmaydi yoki umuman o’rganmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni iloji boricha o’zlari hohlagan mashg’ulotlar bilan shug’ullantirish kerak chunki unda shu narsaga qobiliyati ya’ni istedodi bo’lishi mumkin va bu bolaning kelajagi uchun juda katta yutuq bo’lishi mumkin. Bolalarning diqqati rivojlanishi uchun faqat ota-onasi yoki tarbiyachisi mas’ul deb aytolmaymiz, chunki ularning hammasi birday mas’ul. Ya’ni uyda ota-ona tomonidan tergalib faqat yaxshi yo’lga yo’naltirilgan bola bog’chada jamoa bo’lib islah yoki yangi bir narsa o’rgatilayotganda quloq solib halaqit bermaydi bu ham diqqatni rivojlanishiga katta yordam beradi. Lekin ba’zi bir oilalarda bolani erkalatish oqibatida uni taltaytirib yuborishadi va bu atrof muhitga ham bo’laning o’ziga ham zarar hisoblanadi. Hozirgi kunda diqqatni rivojlantirish uchun har xil o’yinlar o’ylab chiqilgan agar ota-onalar bolalari bilan kun davomida hech bo’lmasa bir soat shunday o’yinlarni o’ynashsa, bolaning diqqati tezroq rivolanadi va uning kelajakda qiyinchiliklarsiz bir narsani o’rganishga katta yordam bergan bo’lishadi. L.S.Vigotskiy psixik funksiyalar rivojlanishini o’rgana borib, ular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Uning fikricha, bola diqqatining tarixi -bu bola xulqining paydo bo’lishi tarixidir. L.S.Vigotskiy ishlarining xarakterli tomoni kishi psixikasini tushunishda tarixiy va genetik yondashishdir. Buni u diqqatni o’rganishga ham tadbiiq qilgan va diqqatning rivojlanishini ko’rsata olgan. Muallif diqqat rivojlanishining ikkita yo’nalishini ko’rsatadi:Diqqatning natural rivojlanishida muallif umumorganik rivojlanishini

tushuntiradi, ya'ni markaziy nerv tizimining strukturaviy va funksional jihatdan o'sishini ko'rsatadi. Bu rivojlanish butun hayot davomida bo'ladi, ammo bunda "sekinlashgan" va "biroz pasaytirilgan" ko'rinishlari mavjud. Diqqatning madaniy rivojlanishida ixtiyoriy diqqatning namoyon bo'lish xususiyati madaniy konsepsiya bilan bog'liq deb tushuntiriladi. Katta yoshdagi odamlar diqqatining psixologik mexanizmi haqida gapirib, tashqi operatsiya organizm xulqini ichki operatsiyasiga aylanadi, deydi. Madaniy rivojlanish bola tashqi muhit bilan aloqa qila boshlaganda o'sa boshlaydi. Ya'ni bolaning madaniy rivojlanishda tashqi muhitning o'rni katta. Bunda bolaning atrofini o'rab turgan insonlarning bir biriga bo'lgan munosabatining yaxshi bo'lishi muhim qachonki bola atrofidagi insonlar bilan muloqotga kirishishni boshlasa uning madaniy konsepsiyasi ham rivlanayotgan bo'ladi. L.S.Vitovskiy ilmiy yutug'i shundaki, u diqqat muammosini o'rganishda ikkita genetik va ijtimoiy nuqtai narazardan foydalanadi. Ixtiyoriy diqqatni tashqi stimullar vositasida nutq funksiyasini yo'naltirish deb tushuntira oldi. L.S.Vigotskiy ishlarini A.N.Leontev o'z tadqiqotlarida davom ettirib, ixtiyoriy diqqatning rivojlanishini o'rgandi. U ixtiyoriy diqqat xatti-harakatni boshqarishning oliy shakli va tarixiy rivojlanish mahsuli deb tushundi. Bolalarda diqqat shakllarini tahlil qilib 3 ta bosqich mavjudligini ko'rsatdi: 1. Natural bevosita, to'g'ridan-to'g'ri aktlardan iborat. Bunda to'planish ixtiyorsiz namoyon bo'lib, asosan maktabgacha bo'lgan bolalarda vujudga keladi. Ya'ni bu bolalar o'z xulq-atvorlarini o'zlari boshqara boshlaydilar. 2. Tashqi belgining ahamiyatini egallash, tushuna bilishlari turadi. Bu bosqich boshlanqich ta'limda asosiy rol o'ynaydi va bu yoshdagi bolalar o'rgatilgan narsalarni tushinishadi va esda saqlab qolishadi. 3. Tashqi taassurotlarning ichki ta'sirlarga aylanish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu asosan katta yoshdagi kishilarda bo'ladi. Ya'ni katta yoshdagi isnonlar tashqi olamda bo'layotgan faoliyatlarni angalab ularga o'z munosabatini bildira oladi. Bolalarning diqqati rivojlanishi uchun faqat ota-onasi yoki tarbiyachisi mas'ul deb aytolmaymiz, chunki ularning hammasi birday mas'ul. Ya'ni uyda ota-ona tomonidan tergalib faqat yaxshi yo'lga yo'naltirilgan bola bog'chada jamoa bo'lib ishlash yoki yangi bir narsa o'rgatilayotganda quloq solib halaqit bermaydi bu ham diqqatni rivojlanishiga katta yordam beradi. Lekin ba'zi bir oilalarda bolani erkalatish oqibatida uni taltaytirib yuborishadi va bu atrof muhitga ham bo'laning o'ziga ham zarar hisoblanadi. Hozirgi kunda diqqatni rivojlantirish uchun har xil o'yinlar o'ylab chiqilgan agar ota-onalar bolalari bilan kun davomida hech bo'lmasa bir soat shunday o'yinlarni o'ynashsa, bolaning diqqati tezroq rivolanadi va uning kelajakda qiyinchiliklarsiz bir narsani o'rganishga katta yordam bergan bo'lishadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Yunusova G. S. THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDICTION OF UZBEKISTAN// The Way of Science(2014).

2. Asatov, Рахимова, Феруза Наймиддиновна. "Value Of Reading Books In Perfection Of Personality." Актуальные научные исследования в современном мире 5-7 (2020): 47-49.

3. Alibek. "ABOUT TURKESTAN AUTONOMY OR ITS PREDECESSORS." Академические исследования в современной науке 3.2 (2024): 28-36.